

KIMYO FANINING AMALDAGI HOLATI HAMDA RIVOJLANISHI

Egamberdiyeva Zulkumor Abduraxmonovna

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tabiiy fanlar xususan kimyo faniga qaratilayotgan e'tibor, o'quvchilarning bu mazkur fanga qiziqishini orttirish va fanning o'quv sifatini oshirish, o'qituvchining mazkur fanni chuqur bilishi, fan yangiliklaridan doimiy ravishda xabardor bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritiladi

KALIT SO'ZLAR: o'quv dasturlar, oddiy asboblari, plastik tagliklar, rassom-restavratorlar, amaliy topshiriq, sirka kislotasi

KIRISH

Kimyo fanini o'qitishdagi eng asosiy vazifalardan biri o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini, o'qitish sifatini oshirish, fan va texnikasini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishdan iborat. O'quvchilarni mazkur fanga qiziqishini va fanning o'quv sifatini oshirishda birinchi navbatda o'qituvchining o'zi mazkur fanni chuqur bilishi, fan yangiliklaridan doimiy ravishda xabardor bo'lishi kerak. Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'limdagi ulkan rivojlanishlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi hamda 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan taqdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar asos bo'lmoqda. Mazkur belgilangan vazifalarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan buyruqlar qabul qilinib, ijrosi ta'minlanmoqda. Belgilab qo'yilgan vazifalarda asosan tabiiy va aniq fanlarni o'qitishga e'tibor kuchaytirilganligi quvonarli hol. Jumladan, kimyo fanini o'qitilishi bo'yicha o'quv dasturlari qaytadan takomillashtirildi. Bunda XTV ning 2020- yil 25-fevral 52-son buyrug'i "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2020-2021- o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja"ga asosan 10-,11-sinflarning har biriga 34 soatdan qo'shib berilib, 102 soatga keltirildi. Endilikda 2020-yil sentyabr oyidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-,11-sinflarida kimyo fani haftasiga 2 soatdan emas, balki 3 soatdan o'qitilishi belgilab qo'yildi. Amaldagi 10-,11-sinf darsliklaridagi mavzular esa 68 soatga mo'ljallangan. Qo'shib berilgan 34 soat uchun darslik mualliflari, metodist va amaliyotchi o'qituvchilar bilan hamkorligida tavsiyalar tayyorlanmoqda. Amaldagi darslikka qo'shimcha tayyorlangan tavsiyalardan foydalanib darslarni to'liq o'tish imkoniyati yaratiladi. Tavsiyalarda asosan takomillashtirilgan o'quv dasturiga kiritilgan laboratoriya tajribalarining mavzulari, ularni o'tkazish usullari, masalalar va ularning yechish uchun namunalar kiritilgan.

ASOSIY QISM

Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida o'quvchilarda hosil bo'lgan amaliy ko'nikmalarning turg'unligiga, laboratoriya ishini tartib bilan olib borilishiga alohida e'tibor beriladi. Dars boshlashdan oldin kerakli asboblari, jihozlar va kimyoviy moddalarni laborant tomonidan plastik tagliklarga tayyorlab qo'yilishi kerak. Agar maktab laboratoriya xonasi kimyoviy moddalar (reaktivlar) bilan to'liq ta'minlanmagan yoki yetishmovchiliklar bo'lsa, u holda kundalik turmushda foydalaniladigan ba'zi kimyoviy moddalar va maishiy mahsulotlarning moslari bilan almashtirib o'tkazish mumkin. Masalan, indikatorlar o'rniga sabzavot, gullar sharbati va meva sharbatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarni oddiy asboblarni tuzishga va ulardan foydalanib gaz moddalarini olish, xossalarini o'rganish maqsadidagi o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotida agar laboratoriyada xlorid kislotasi va rux moddasi bo'lmasa, kundalik turmushda ishlatiladigan sirka kislotasi va eski batareyka ustki qoplamasidan foydalanish mumkin. Yoki amaliy topshiriqlarni hayotiy jarayonlarni tahlil etish orqali yechimini topishga o'rgatish kerak. Uni quyidagicha topshiriqlar orqali amalga oshirish mumkin. 1-topshiriq. Rassom-restavratorlarning ta'kidlashicha, moyli bo'yoq yordamida ishlangan rasmlar tezda o'z holatini yo'qotadi. Ayniqsa, vaqt o'tishi bilan oq bo'yoq kul rangini oladi. Ushbu holat rasmning sifatiga ta'sir qiladi. Bu qanday jarayon? Uning oldini olish mumkinmi? Amaliy topshiriq yechimi: ✓ Oq pigment - oq qo'rg'oshin. Ushbu modda qo'rg'oshin (II) karbonatdir ($PbCO_3$).

XULOSA

Ushbu 10-,11-sinf kimyo fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturlari asosida tayyorlangan tavsiyalarlardan o'qituvchilar ijodiy yondoshgan holda, ma'lumotlarga qo'shimchalar kiritishi va o'zgartirishi mumkin. 2020-2021 o'quv yilida kimyo fani bo'yicha o'zgarishlardan yana biri bu O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 15-iyundagi 144-sonli buyrug'i asosidagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarni tajribasinovdan o'tkazish bo'yicha tavsiya" sida belgilab qo'yilgan tartibga muvofiq ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tajribasinovdan o'tkaziladigan (tanlov sinfi tanlov fanlar bo'yicha) kimyo fani yo'nalishi bo'yicha variativ o'quv rejalari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra kimyo fani bo'yicha 2 ta yo'nalishda tanlov asosida o'qitilishi ko'rsatib o'tilgan.

ADABIYOTLAR

1. "Maktabda kimyo" ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnal-2014 yil Tahrir hay'ati: N.Murotov, N.Parpiyev, N.Rahmatullayev, N.Qosimova
2. "Kimyo" darsligi 7-sinf – 2013-yil. Mualliflar: I.R.Asqarov, N.X.To'xtaboyev, K.G'.G'opirov.

3. G.P.Xomchenko. oliy o‘quv yurtiga kiruvchilar uchun qo‘llanma- T. “O‘qituvchi” 2000
- 6.Kimyoy va hozirgi zamon. – T. “O‘qituvchi” 1991 7.I.R.Asqarov, N.X.To‘xtaboev, K.G‘opirov. kimyo –T “Sharq” 2013.
4. “Yosh ximik ensiklopedik lug‘ati”- 1990 yil Muallif: M.Asqarov.
5. Kimyoni mustaqil o‘rganish 8-9 sinflar uchun. – T. “O‘qituvchi” 1989.

